

Maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi

G.Bekimbetova

Nukus davlat pedagogika instituti

Pedagogika fanlari falsafa dokori

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida (5-7-sinflar) qoraqalpoq tili bo'yicha nazariy bilimlarni berish, o'quvchilarga lug'aviy tarkib va yasalishi, so'z turkumlari va ularning o'zgarishi, so'zlarning o'z aro aloqasi va so'z birikmasi hamda gap tuzish qonuniyatlarini o'rgatish nazarda tutiladi. Bu ta'lim bosqichi bitiruvchilari qoraqalpoq tilida so'zlarni o'z aro to'g'ri bog'lab, gap tuza olishi va gapirishning dialogik va monologik shakllarida erkin muloqot qila olishi zarur. Bu bo'yicha o'qish dasturida sinflar kesimida har bir matn mavzusi doirasida beriladigan **leksikalik minimum** (kalit so'z va iboralar), **grammatik minimum** (so'z shakllari va grammatik bilimlarning aniq chegarasi), muloqot odobi, adabiy o'qish va ish qog'ozlarini yuritish bo'yicha berilishi nazarda tutilgan ma'lumotlar aniq ko'rsatib qo'yilgan. Xususan, 5-6-sinflarda mavzular leksika (leksik minimum), grammatika (grammatik minimum), muloqot odobi, adabiy o'qish; 7-sinflarda bo'lsa leksika (leksik minimum), grammatika (grammatik minimum), ish qog'ozlarini yuritish va adabiy o'qish sifatida taqsimlandi. Bunda leksik minimum har bir matn mavzu bo'yicha belgilangan kalit so'z va iboralar ham da matnlik bog'lomlardan, grammatik minimum berilishi zarur bo'lgan bilimlar jamlanmasi o'rganildi.

Tadqiqot ishimiz jarayonida quyidagi vazifalarni bajarishni belgiladik:

- obyektlarni belgilash. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitish imkoniyatlarini aniqlash;

- tajriba-sinov ishlarida qatnashgan respondent o'quvchilarni belgilash. Bunda o'quvchilarda qoraqalpoq tilini bilish bo'yicha gaplashish (og'zaki va yozma nutq tajribasi, o'qish va tushinish, tinglap tushinish) hamda lingvistik kompetensiyalar (lingvistik tajriba: fonetika, orfografiya, leksikologiya,

morfologiya, sintaksis) bilimlar darajasini aniqlash;

- tajriba va nazorat guruhlarida va tadqiqotda ishtirok etadigan o'quvchilar sonini belgilash. Shu bilan birga, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitishning samarali yo'llarini aniqlash;

- tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan Nukus shahri va tumanlardagi umumiy o'rta ta'lim maktablarini rasmiyat tasdiqlash;

- ta'lim-tarbiya omillari, tamoyillari, shakl, metod, vosita va yo'llarini aniqlash;

- tadqiqot ishni loyihalashtirish;

- tajriba-sinov ishlarini natijalari tahlil qilindi.

Dissertatsiyamizda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilin o'qitishni rivojlantirish modelini ishlab chiqdik. Qoraqalpoq tilini o'qitishni rivojlantirish modelida tadqiq qilinayotgan obyekt (yoki ko'rinish) ga xos sxema, fizik chizma, ma'lum shakl yaratilgan, bu obyekt o'rtasidagi elementlarni tuzilma, xususiyat, o'z aro aloqadorlik va ishtirokning oddiy shaklida

Dissertatsiya tadqiqoti yarayonida modellashtirish usulini qo'llash ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitishning maqsad va mazmunini aniqlashga, bu jarayonning prognozlangan natijasini aniqlashga, shu asosda tegishli modelni ishlab chiqishga imkon berdi (1-rasm).

O'quvchisining o'qish va yozuv ko'nikmalari haqidagi dastlabki ma'lumotlarni to'plash, baholash va tuzatish bosqichida savodga o'rgatishga aniqlik kiritish, mustaqil baholash bosqichida davom ettiriladigan qo'shimcha mashg'ulotlarni tanlash va yakunlovchi tanlov bosqichida kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish rejasini ishlab chiqish ishlari olib borildi.

Ta'lim turlari, metodlari va vositalari

	Kasbiy- metodik kompetensiyani rivojlantirish	Ta'lim turlari	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari
--	--	---------------------------	-----------------------------	------------------------------

	bosqichlari			
.	Dastlabki savol bosqichi	Nitqga o'rgatishga illyustrativ va tushintirish darslari	Ta'limning ko'rgazmali metodlari	Rasmlı vositalar
.	Baholash va tuzatish bosqichi	Yozuvga o'rgatish jarayoni bosqichlari asosida muammoli darslar	Ta'limning muammoli tadqiqot, reproduktiv evristik, mustaqil ishlar metodlari	Matnli vositalar
.	Mustaqil baholash bosqichi	Tinglashga o'rgatishda mashq turlari bo'yicha yo'naltirilgan darslar	Ta'limning amaliy metodlari	Audio-vizual vositalar
.	Yakunlovchi tanlov bosqichi	O'quvchida ko'nikmaga o'rgatish bo'yicha nostandart darslar	Ta'limning induktiv va deduktiv metodlari	Yordamchi va modelli vositalar

Biz tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun Qoraqalpoq tili (davlat tili) fanidan dars beruvchi o'qituvchilar haqida ma'lumot, shu jumladan, tajriba-sinov ishlarini olib boorish uchun Nukus shahri 37- va 46-maktab, Ellikqal'a tumani 22- va 32-maktab, To'rtko'l tumani 7-maktabi, Xojeli tumani 24- va 27-maktab, Qo'ng'iro't tumani 40- va 47-maktab, Taxtako'pir tumani 17- va 18-maktablardan tajriba-sinov maydonchasi sifatida foydalanildi.

Tadqiqot ishimiz obyektı sifatida OTM qoraqalpoq tili va adabiyoti mutaxassisligi talabalarining o'quv rejalari va u yerda o'qitiladigan "Ona tili va adabiyotini o'qitish metodikasi" moduli (3-kurs, V semestr), "Ona tilini o'qitish

metodikasi” moduli (3-kurs, VI semestr), “Qoraqalpoq tilini boshqa tillarda o‘qitiladigan maktablarda o‘qitish” moduli (4-kurs, VII semestr), “O‘zga tili sinflarda qoraqalpoq tilini o‘qitish” moduli (4-kurs, VII semestr) *mavzuga aloqador* kompetensiyalarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan mavzularga namuna sifatida dasturlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Qoraqalpoq tili (davlat tili) modullariga *reproduktiv mahsulotlar* tayyorlandi. Shu nuqtai nazardan biz dissertatsiyamizning amaliy ahamiyatiga e‘tibor qaratqan holda “Pedagogik mahoratning nazariy asoslari”, “Psixologik atamalarning izohli lug‘ati” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmalar yaratildi. “Qoraqalpoq tili” darsida o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, qobiliyatlarini rivojlantiruvchi mashqlar tayyorlandi va tajriyba-sinovdan o‘tkazildi, dars ishlanmalar tayyorlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рамзаева Т.Г. Языковое образование и его реализация в программе по русскому языку (II - IV классы одиннадцатилетней школы) // Методические основы языкового образования и литературного развития младших школьников: пособие для студентов факультета начального обучения и учителей начальных классов; под общей редакцией профессора Т.Г.Рамзаевой. - СПб.: Специальная литература, 1998. - С.4.
 2. Ерназарова М.С. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг 2-синфларида ўзбек тилини ўқитиш методикаси. Диссертация автореферати.1999-11-бет.
 3. Йўлдошев Р. “Ўзбек тили” давлат таълим стандартини жорий этишга доир методик тавсиялар (таълим бошқа тилларда олиб бориладиган мактаблар учун). - Т.: РТМ, 2002. - Б. 13.
- Щерба Л.В. Фонетика французского языка. Изд 7-е.-М: Высшая школа, 1963. -С. 4.

4. Ahmedova G. O'zbek tili darslarida rusiyzabon o'quvchilar nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari asosida)
Muhamedjonova G.Z. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda rusiyzabon o'quvchilarning o'zbekcha nutqini o'stirish metodikasi (5–9-sinflar misolida): Ped. fan. nom. diss.avtoref. TDPU, – Toshkent: 2003, – 21 b.
5. <http://uza.uz/oz/education/-uvchini-mayib-ilayetgan-k-rinmas-va-samarasiz-milliardlar-14-11-2019>.
6. <https://kun.uz/news/2020/07/18/muhokamalar-markazida-ona-tili-talimidagi-qoy-yogi>. <https://kun.uz/74189092>